Annotatsiya: Ushbu maqolada edukologiya va kommunikatsiyaning kesishgan nuqtalari, ularning ta'lim jarayonidagi metodologik qarashlari tahlil qilinadi. Edukologiya ta'limning nazariy va amaliy asoslarini o'rganayotgan bo'lsa, kommunikatsiya esa samarali muloqot jarayonlarini tashkil etish mexanizmlarini o'rganadi. Maqolada ta'limda kommunikatsiyaning o'rni, shaxsga yo'naltirilgan ta'limdagi ahamiyati, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda amaliy tadqiqotlar misollari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotlar ta'lim va kommunikatsiya fanlarining integratsiyasi ta'lim sifatini oshirishda muhim ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Edukologiya, kommunikatsiya, ta'lim jarayoni, metodologik qarashlar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interaktiv ta'lim, baholash, samarali muloqot.

Abstract: This article analyzes the intersections between education science (edukology) and communication, focusing on their methodological perspectives within the educational process. Edukology studies the theoretical and practical foundations of education, while communication examines mechanisms for effective interaction. The article explores the role of communication in education, the significance of learner-centered approaches, modern information and communication technologies, and examples of practical research. Findings indicate that integrating education and communication sciences is crucial for enhancing education quality.

Key words: Edukology, communication, educational process, methodological perspectives, learner-centered education, information and communication technologies, interactive learning, assessment, effective interaction.

Аннотация: В данной статье анализируются пересечения педагогики и коммуникации, а также их методологические аспекты в образовательном процессе. Педагогика изучает теоретические и практические основы обучения, в то время как коммуникация исследует механизмы эффективного взаимодействия. Рассматривается роль коммуникации в обучении, важность индивидуализированного подхода, современные информационно-коммуникационные технологии и примеры практических исследований. Исследования показывают, что интеграция педагогики и коммуникации играет ключевую роль в повышении качества образования.

Ключевые слова: Педагогика, коммуникация, образовательный процесс, методологические подходы, индивидуализированное обучение, информационно-коммуникационные технологии, интерактивное обучение, оценка, эффективное взаимодействие.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki samarali muloqot va kommunikatsiya orqali bilim almashish jarayoni sifatida ham qaralmoqda. Edukologiya —fanining vazifasi ta'lim jarayonining ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatlarini tahlil qilishdan iborat bo'lib, o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro ta'sirning sifatini oshirishga katta e'tibor qaratadi. Shu bilan birga, kommunikatsiya fanining ta'lim tizimidagi o'rni tobora ortib bormoqda. Ta'limda muloqotni to'g'ri yo'lga qo'yish bilim, ko'nikma va qadriyatlarni samarali uzatish hamda o'rganish jarayonining unumdorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu maqolada edukologiya va kommunikatsiyaning metodologik qarashlari tahlil qilinib, ularning ta'lim jarayonidagi kesishgan nuqtalari o'rganiladi. Maqsad — ta'limdagi kommunikatsion jarayonlarni chuqurroq anglash va ularni samarali qo'llash imkoniyatlarini aniqlashdir.

Edukologiyaning asosiy metodologik qarashlari

Edukologiya (ta'limshunoslik) — ta'lim faoliyatining nazariy asoslari va amaliy mexanizmlarini o'rganuvchi fan sohasi hisoblanib, uning ustuvor vazifasi ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqishdan iborat. Edukologik metodologiya esa ta'lim jarayonini kompleks tizim sifatida tahlil qilish hamda uni optimal tarzda tashkil etish yo'llarini aniqlashni o'z ichiga oladi. Mazkur bo'limda edukologiyaning metodologik poydevori, nazariy kontsepsiyalari hamda ta'lim jarayonida qo'llaniladigan asosiy pedagogik va psixologik yondashuvlar chuqur tahlil etiladi. Edukologiya metodologiyasi ta'lim jarayonini butun tizim sifatida ko'rib chiqadi. Bu tizimda asosiy komponentlar — o'quvchi, o'qituvchi, ta'lim kontenti, o'quv vositalari va ta'lim muhiti o'zaro bog'langan va o'zaro ta'sirda bo'ladi. Metodologik yondashuvlarning asosiy vazifasi ushbu elementlarning samarali o'zaro integratsiyasini ta'minlashdir.

Ta'lim jarayonini tahlil etishda edukologiya quyidagi metodologik tamoyillardan foydalanadi; tizimli yondashuv — ta'lim jarayonini murakkab tizim sifatida ko'rib, uning barcha komponentlari va ularning o'zaro bog'liqligini o'rganish; faoliyat yondashuvi — o'quvchilar faol ishtirokida ta'lim jarayonini tashkil qilish, ularning faolligini rag'batlantirish; shaxsga yo'naltirilganlik — har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olib, o'quv jarayonini moslashtirish; interaktivlik — o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida faol muloqot va o'zaro ta'sirni ta'minlash; dinamizm va moslashuvchanlik — ta'lim jarayonini zamon talablariga mos ravishda doimiy yangilash va takomillashtirish.

Edukologiya quyidagi asosiy ta'lim komponentlarini aniqlaydi va ularni tizimli ravishda o'rganadi: o'quvchi — ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchisi bo'lib, uning psixologik holati va ijtimoiy xususiyatlari ta'lim natijadorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Edukologiya doirasida o'quvchining bilim olishga bo'lgan ichki rag'bat, qobiliyatlari hamda o'rganishga bo'lgan individual yondashuvlari tahlil qilinadi; o'qituvchi — ta'lim faoliyatini tashkil etuvchi va boshqaruvchi shaxs sifatida o'quvchilarga kerakli bilim va ko'nikmalarni yetkazadi, ularning faolligini oshirish va ta'lim jarayonini samarali olib borish uchun turli pedagogik metodlarni qo'llaydi; ta'lim mazmuni (kontenti) — o'quvchilarga yetkaziladigan bilimlar, amaliy ko'nikmalar va axloqiy qadriyatlarining yig'indisidir. Edukologiyada ushbu kontentning dolzarbligi, zamonaviyligi va qamrovi chuqur tahlil qilinadi; ta'lim vositalari va metodlari — ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi usul va texnologiyalar majmuasidir. Bular jumlasiga interaktiv metodlar, zamonaviy texnika vositalari hamda baholash uslublari kiradi; ta'lim muhiti — bu o'quvchi va o'qituvchi o'zaro hamkorlikda ishlaydigan tashqi sharoit va ijtimoiy muhit bo'lib, ta'lim jarayonining mazmuni va sifati ushbu omillarga ham bog'liq bo'ladi.

Edukologiyaning samaradorligi uchun psixologik jarayonlarni tushunish muhim ahamiyatga ega. Shu bois, ta'limda qo'llaniladigan metodologik yondashuvlarda psixologik tamoyillar katta o'rin tutadi. Masalan: Rivojlanish psixologiyasi — o'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim mazmunini shakllantirish jarayonida muhim nazariy-metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur yo'nalish o'quvchilarning kognitiv (bilish), emotsional, ijtimoiy va psixomotor rivojlanish bosqichlarini chuqur o'rganadi hamda har bir yosh davriga mos didaktik materiallar, pedagogik yondashuvlar va o'qitish metodlarini ishlab chiqishga yordam beradi. Shuningdek, rivojlanish psixologiyasi asosida ta'lim jarayonida qo'llaniladigan topshiriqlar, o'quv faoliyati shakllari va baholash uslublari o'quvchilarning psixologik tayyorgarligi va rivojlanish ehtiyojlariga muvofiqlashtiriladi. Bu esa ta'lim samaradorligini oshirish, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni ta'minlash va har bir o'quvchining individual imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Edukologiyada motivatsiya nazariyalari — o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan ichki va tashqi rag'batlarini shakllantirish hamda ularni qo'llab-quvvatlash orqali ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan strategik yondashuvlar tizimidir. Ushbu nazariyalar ta'lim psixologiyasining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishi, faolli va intilishini chuqur tahlil qilishga xizmat qiladi. Masalan, Maslou ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi, Xekkauzenning motivatsion tendensiya nazariyasi, Detsi va Rayanning o'z-o'zini belgilash nazariyasi (Self-Determination Theory) kabi yondashuvlar o'quvchilarni o'rganishga undovchi omillarni izohlaydi va pedagogik amaliyotda turli motivatsion strategiyalarni ishlab chiqish uchun asos yaratadi [Heckhausen, H. (1991). Motivation and Action. Springer-Verlag.]. Motivatsiya nazariyalari asosida o'qituvchilar o'quvchilarda bilimga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirish, ularni muvaffaqiyatga intilish ruhida tarbiyalash, topshiriqlarga nisbatan qiziqish uyg'otish va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, motivatsiyaning ichki (qiziqish, o'zini rivojlantirish istagi) va tashqi (baholar, mukofotlar, tan olinishi) manbalarini muvozanatda qo'llash orqali o'quv jarayonida barqaror o'rganish muhiti yaratiladi. Bu esa o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash va o'zlashtirish darajasini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, kognitiv psixologiya — bilimlarni qabul qilish, saqlash va qayta ishlash jarayonlarini o'rganadi va shu bilan bir qatorda, ijtimoiy psixologiya — ta'lim jarayonida guruh ichidagi munosabatlar va kommunikatsiya rolini o'rganadi.

Bugungi kunda edukologiya ta'lim jarayonining sifatini oshirish uchun quyidagi metodologik yondashuvlardan keng foydalanadi: Edukologiyada faollashtiruvchi ta'lim — bu zamonaviy pedagogik yondashuv bo'lib, uning asosiy maqsadi o'quvchini dars jarayonining passiv tinglovchisi emas, balki faol ishtirokchisi sifatida

shakllantirishdir. Bu yondashuv o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, tanqidiy yondashuvini, ijodiy imkoniyatlarini va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Faollashtiruvchi ta'limning asosiy xususiyatlarida biri bu o'quvchilar o'rganilayotgan mavzu bo'yicha fikr yuritadi, savollar beradi, muhokamalarda ishtirok etadi va o'z fikrini asoslaydi. Bu orqali ular bilimni tayyor holatda emas, balki izlanish va tajriba orqali o'zlashtiradi. Shu bilan bir qatorda, o'qituvchi darsda turli muammoli topshiriqlar, holatli misollar, savol-javoblar orqali o'quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtiradi. O'quvchilar muammoga yechim topishga intilib, amaliy fikrlash va tahlil qilish malakalarini rivojlantiradi. Bundan tashqari, guruh bilan ishlash, bu bolani mustaqil o'qishga yo'naltirish yana refleksiya ya'ni o'quvchilar o'z faoliyatida ustida fikr yuritishi ham faollashtiruvchi ta'limning asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Edukalogiyada differensial ta'lim — bu har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlari, bilim darajasi, o'rganish sur'ati va qiziqishlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishdir. Ushbu yondashuv o'quvchilarning o'ziga xos ehtiyojlarini inobatga olib, ularga mos metodlar, topshiriqlar va o'qitish shakllarini tanlashni nazarda tutadi. Shuningdek differensia ta'limda, o'quvchilarning individual farqlariga e'tibor qaratiladi, ularning o'rganishdagi imkoniyatlari va ehtiyojlariga qarab darslar tashkil etiladi, o'qituvchi har bir o'quvchi uchun alohida yondashuvni tanlaydi — bu metodlar, o'quv materiallari va baholash usullarining farqliligini anglatadi, bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish uchun har bir o'quvchiga mos murakkablikdagi topshiriqlar beriladi, faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv orqali o'quvchilarning o'quv jarayonidagi ishtiroki kuchaytiriladi, o'quvchilarga o'z bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda mustaqillik va tanlov erkinligi beriladi.

Edukalogiyada axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash — bu zamonaviy ta'lim jarayonini raqamli texnologiyalar, interaktiv vositalar va multimedia orqali boyitish, ta'lim samaradorligini oshirish va o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytirishga qaratilgan faoliyatdir. AKT ta'limni yanada qiziqarli, tushunarli va o'zlashtirishga yengil shaklga keltiradi. Edukalogiyada axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish — bu hozirgi zamon ta'limining ajralmas tarkibiy qismiga aylangan. Ushbu texnologiyalar ta'lim jarayonini yanada interaktiv, moslashuvchan va o'quvchiga yo'naltirilgan shaklda tashkil etishga xizmat qiladi. AKT orqali o'quvchilar nafaqat yangi bilimlarni egallaydilar, balki mustaqil izlanish olib borish, ijodiy fikrlash va hayotiy muammolarni hal qilish ko'nikmalarini ham rivojlantiradilar. Shu bois, bugungi kunda edukologik faoliyatda AKTdan samarali foydalanish zamonaviy ta'limning asosiy talablardan biri hisoblanadi.

Edukologiya metodologiyasida hali ham bir qator muammolar mavjud. Masalan, individual yondashuvni ta'minlash, ta'lim kontentini zamon talablariga moslashtirish, va ta'lim muhitini yanada qulay qilish masalalari dolzarbdur. Shu bilan birga, kommunikatsiya jarayonlarining samaradorligini oshirish uchun yangi pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar joriy etilishi lozim. Kelajakda edukologiyaning metodologik yondashuvlari yanada ko'proq interfaol, shaxsga yo'naltirilgan va texnologik jihatdan boyitilgan bo'lishi kutilmoqda. Shu bilan birga, psixologiya, sotsiologiya, axborot texnologiyalari kabi sohalar bilan integratsiya yanada chuqurlashadi.

Kommunikatsiya nazariyasi va uning ta'limdagi o'rni

Kommunikatsiya — bu insonlar o'rtasida axborot, fikr va his-tuyg'ular almashinuvi jarayoni bo'lib, u jamiyatning barcha sohalarida, xususan, ta'lim tizimida muhim rol o'ynaydi. Kommunikatsiya nazariyasi ushbu jarayonning qanday tashkil etilishi, uning struktura va funksiyalarini, shuningdek, samarali muloqotga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganadi. Ta'limdagi kommunikatsiyaning samaradorligi esa o'quv jarayonining sifatini va natijalarini bevosita belgilaydi. Kommunikatsiya nazariyasining asosiy elementlari — jo'natuvchi (muloqot boshlovchi), qabul qiluvchi (muloqot ishtirokchisi), xabar (axborot), kanal (axborotni yetkazish vositasi) va oraliq shovqin (axborot almashinuvida to'siqlar)dan iborat. Samarali kommunikatsiya uchun bu elementlarning muvofiqligi va to'g'ri ishlashi zarur. Shu o'rinda kommunikatsiya shakllari ko'p va xilma-xil bo'lib bo'ladi. Masalan, og'zaki kommunikatsiya, yozma kommunikatsiya, noverbal kommunikatsiya, vizual kommunikatsiyalar kabi. Kommunikatsiya edukalogiya ya'ni ta'lim jarayonida bilim va ko'nikmalarni samarali yetkazish hamda o'rganishni ta'minlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Samarali kommunikatsiya yordamida o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifoda eta oladi, yangi bilimlarni yaxshiroq qabul qiladi va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot o'zaro ishonch, hurmat va qo'llab-quvvatlashga asoslanishi zarur. Bu esa ta'lim jarayonining muvaffaqiyatini belgilovchi omillardandir. Agar kommunikatsiya ochiq va samimiy bo'lsa, o'quvchilar ko'proq faol bo'ladi va o'rganishga bo'lgan qiziqish oshadi.

Ta'lim jarayonida bir nechta kommunikatsiya turlari mavjud: yuqoridan pastga (didaktik) kommunikatsiya — o'qituvchidan o'quvchiga bilimlarni uzatish shakli. Bu an'anaviy ta'limda ko'p uchraydi; pastdan yuqoriga kommunikatsiya — o'quvchilarning fikr va mulohazalarini o'qituvchiga yetkazishi. Bu turdagi muloqot o'qituvchi uchun baholash va ta'lim jarayonini takomillashtirish imkonini beradi; gorizontalkommunikatsiya — o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlik va tajriba almashinuvi. Guruh ishlari, muhokamalar va jamoaviy loyihalar uchun asos bo'ladi; vertikal kommunikatsiya — ta'lim muassasasining rahbariyati va pedagoglar o'rtasidagi axborot almashinuvi. Kommunikatsiya nazariyasining asosiy tushunchalari va metodlari ta'lim metodologiyasida o'z aksini topadi. Masalan, Shannon va Weaver modeliga ko'ra, axborot manbai va qabul qiluvchining samarali bog'lanishi uchun signal to'siqlardan tozalangan bo'lishi kerak [Shannon, C. E., & Weaver, W. (1949). The

Mathematical Theory of Communication. University of Illinois Press.]. Ta'lim jarayonida bu o'quv materialining aniq va tushunarli bo'lishi, shuningdek, ta'lim muhitining to'g'ri tashkil etilishini anglatadi. Shuningdek, Berlo modelida kommunikatsiya jarayoni jo'natuvchi, xabar, kanal va qabul qiluvchi elementlariga asoslanadi. Bu model ta'limda o'qituvchining nafaqat bilim beruvchi, balki samarali muloqotchi bo'lishi zarurligini ko'rsatadi.

Samarali ta'lim uchun quyidagi kommunikatsiya strategiyalari qo'llaniladi: aktiv tinglash — o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro tushunishni ta'minlash uchun faol tinglash usuli qo'llanadi; savol-javob metodlari — fikr almashishni rag'batlantiradi va o'quvchilarning faol ishtirokini oshiradi; muloqotning ochiqligi va konstruktivligi — tanqidiy fikrni erkin bildirish va uni ijobiy yo'nalishda rivojlantirish imkonini beradi; noverbal kommunikatsiya vositalarini ongli qo'llash — tana tili, yuz ifodalari va imo-ishoralar orqali fikrlarni yanada aniqroq yetkazish; multimediy va interaktiv vositalar — darslarni qiziqarli va tushunarli qilishda muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi ta'limdagi kommunikatsiya jarayonlarini tubdan o'zgartirmoqda. Onlayn platformalar, video-konferensiyalar, elektron ta'lim tizimlari va mobil ilovalar ta'lim jarayonida real vaqt rejimida samarali muloqotni tashkil etishga imkon beradi. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar va forumlar o'quvchilar o'rtasida bilim almashish va muhokamalarni kengaytiradi, pedagoglarga esa o'quvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Edukologiya va kommunikatsiyaning kesishgan nuqtalari

Edukologiya va kommunikatsiya fanlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Edukologiya ta'limning nazariy asoslari va amaliy yo'nalishlarini chuqur tahlil qilsa, kommunikatsiya fani insonlar o'rtasidagi axborot almashinuvi, muloqot madaniyati va uzviy aloqa jarayonlarini o'rganishga ixtisoslashgan. Shu munosabat bilan, ta'lim muhitida samarali kommunikatsiya vositalarini va texnikalarini yo'lga qo'yish — o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida tushunishni mustahkamlash, o'quvchilarning faolligini oshirish va umuman ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli kechishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi axborot almashinuvi ta'limning asosiy jarayoni hisoblanadi. Edukologiya bu jarayonni metodologik jihatdan o'rganadi, kommunikatsiya esa uning samaradorligini ta'minlash vositasi sifatida xizmat qiladi. Ta'limda faqat bilim berish emas, balki o'quvchilarning fikr almashishi, munozara qilish, muammolarni birgalikda hal etish kabi kommunikatsion jarayonlar ham muhim.

Edukologiyaning asosiy tamoyillaridan biri – shaxsga yo'naltirilganlik. Bu esa o'quvchining individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishni anglatadi. Bunday ta'limni samarali tashkil etish uchun o'qituvchi o'quvchining fikrlarini tinglashi, u bilan muloqot qilishi, uning motivatsiyasini tushunishi zarur. Bu jarayonda kommunikatsiya tamoyillari va texnikalari katta ahamiyat kasb etadi. Interaktiv ta'lim metodlari (guruh ishlari, rolli o'yinlar, muhokamalar) o'quvchilarning faolligini oshirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda kommunikatsiya vositalari o'quvchilar o'rtasida o'zaro axborot almashish va hamkorlikni ta'minlaydi. Edukologiya bunday interaktiv metodlarni tahlil qilib, ularni samarali qo'llash usullarini ishlab chiqadi. Baholash — ta'lim jarayonining ajralmas qismi. Edukologiyada baholash metodlari o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini aniq va adolatli baholashga qaratilgan. Kommunikatsiya esa baholash natijalarini o'quvchilarga tushunarli shaklda etkazish, ularni rag'batlantirish va yanada yaxshilashga undash vositasi hisoblanadi. Zamonaviy ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) keng qo'llaniladi. Edukologiya AKTning ta'lim sifatiga ta'sirini o'rganar ekan, kommunikatsiyaning raqamli muhitdagi xususiyatlarini ham hisobga oladi. Onlayn darslar, virtual seminarlar, elektron forumlar o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi muloqotni yangi formatga o'tkazmoqda. Bu esa ta'limning erkinligi, masofaviyligi va individualizatsiyasini oshiradi.

Amaliy misollar va tadqiqotlar

Ta'lim va kommunikatsiya fanlari sohasida olib borilgan ko'plab tadqiqotlar va amaliy ishlar mavjud bo'lib, ular ta'lim jarayonidagi kommunikatsiyaning samaradorligini ko'rsatadi. Misol tariqasida keltirib o'tirishimiz mumkin, amerikalik olimlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda interaktiv ta'lim usullarining (muammoli o'rganish, guruh ishlari) an'anaviy ma'ruza metodlaridan ancha samarali ekanligi isbotlangan. Michael J. Prince — AQShlik (amerikalik) olim bo'lib, u Bucknell University (Pensilvaniya shtatida joylashgan xususiy universitet) da muhandislik pedagogikasi bo'yicha professor sifatida faoliyat yuritadi. Michael J. Prince tadqiqotiga ko'ra, faol-interaktiv o'qitish metodlari: o'quvchilarni darsda faol ishtirok etishga undaydi, ularning tushunishi va eslab qolishini yaxshilaydi, ijtimoiy-ta'limiy muhitni sog'lomlashtiradi va umumiy ta'lim sifatini oshiradi. Shuningdek, Prince ta'limda faol ishtirok, guruh ishlari, hamkorlikda o'rganish va muammoli yondashuvlar samaradorligini ilmiy asoslashda muhim hissa qo'shgan. [<https://doi.org/10.1002/j.2168-9830.2004.tb00809.x>] So'nggi yillarda onlayn ta'lim platformalarining (Coursera, Khan Academy va boshqalar) rivojlanishi ta'lim jarayonida kommunikatsiyaning yangi shakllarini paydo qildi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, interaktiv forumlar va video-konferensiyalar yordamida o'quvchilar bir-biri bilan samarali fikr almashadi, bu ularning motivatsiyasini oshiradi va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'zbekistonda olib borilgan amaliy tadqiqotlarda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim usullarini qo'llash orqali o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan qiziqishi va natijalarining sezilarli darajada oshgani aniqlangan. Bunda, o'qituvchilarning individual yondashuvi va o'quvchilar bilan muntazam muloqoti muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Yevropa mamlakatlarida olib borilgan tadqiqotlar shuni

ko'rsatadiki, o'quvchilarga baholash natijalari haqida konstruktiv va doimiy fikr bildirish ularning o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda ta'lim sifatini oshiradi.

XULOSA

Edukologiya va kommunikatsiya ta'lim tizimining ajralmas va o'zaro bog'liq elementlaridir. Ularning uyg'unlashuvi ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini yuksaltirish va shaxsiy rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi va har qanday ta'lim islohotlari bu ikki sohaning chuqur integratsiyasiga asoslanishi maqsadga muvofiqdir. Kelajakda bu yo'nalishlar o'zaro chuqur integratsiyalashgan, texnologik va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tizimlarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdukarimov, A., & Xayrullayeva, D. (2019). Edukologiya: Ta'lim va tarbiyaning nazariy asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya.
2. Habermas, J. (1984). The Theory of Communicative Action. Vol. 1: Reason and the Rationalization of Society. Boston: Beacon Press.
3. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
4. Siemens, G. (2005). Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age. International Journal of Instructional Technology and Distance Learning, 2(1), 3–10.
5. Dewey, J. (1938). Experience and Education. New York: Macmillan.
6. McCroskey, J. C., & Richmond, V. P. (2005). Communication apprehension, avoidance, and effectiveness. Boston: Pearson Education

